



FOYDA SOLIG'I MA'MURCHILIGI: NAZARIY VA AMALIY JIHATLAR

PROFIT TAX ADMINISTRATION: THEORETICAL AND PRACTICAL ASPECTS

**¹Zaripov Xusan
Baxodirovich**

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Soliq va soliqqa tortish" kafedrası
professori v.b., PhD. **ORCID:** 0009-0007-7370-6249,
E-mail: xb_zaripov@mail.ru

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Maqolada foyda solig'i ma'murchiligining nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. O'zbekiston Respublikasida foyda solig'i ma'murchiligi tizimining shakllanishi, raqamlashtirish jarayonlari hamda xalqaro tajribalar o'rganilgan. Xususan, soliq ma'murchiligi jarayonlarini avtomatlashtirish, risk tahlili tizimi va sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llashning ahamiyati ko'rsatib o'tilgan. Raqamli boshqaruv tizimlarini keng joriy etish foyda solig'i ma'murchiligining samaradorligini oshirish yuzasidan takliflar tizimini bayon qilgan.

Eng. - The article analyzes the theoretical and practical aspects of profit tax administration. It examines the formation of the profit tax administration system in the Republic of Uzbekistan, the processes of digitalization, and international experiences. In particular, the importance of automating tax administration processes, implementing risk analysis systems, and applying artificial intelligence technologies is highlighted. The study also presents a set of proposals aimed at improving the efficiency of profit tax administration through the widespread implementation of digital management systems.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ foyda solig'i, soliq ma'murchiligi, raqamlashtirish, soliq siyosati, iqtisodiy barqarorlik, risk tahlili, sun'iy intellekt.
❖ profit tax, tax administration, digitalization, fiscal policy, economic stability, risk analysis, artificial intelligence.

Kirish.

Bozor iqtisodiyotida davlat budjetining asosiy daromad manbalaridan biri bu soliq tushumlari. Ular ichida foyda solig'i iqtisodiy faoliyatdan olinadigan foydaning ma'lum qismini davlat budjetiga yo'naltirish orqali davlat va tadbirkorlik subyektlari o'rtasida iqtisodiy muvozanatni ta'minlaydi. Soliq siyosatini shakllantirish jarayonida hukumat uchun soliq to'lovchilar va davlat manfaatlarini uyg'unlashtirish muhim ahamiyatga ega. Bu orqali korxonalarni tadbirkorlik faoliyatini yuritishga

rag'batlantirish va budjetga soliq tushumlarini ko'paytirish mumkin bo'ladi.

Soliq islohotlari, jumladan, tashkilotlar foydasiga soliq solish sohasidagi o'zgarishlar ham iqtisodiy o'sish uchun sharoit yaratishi, ham uning sekinlashish omillaridan biriga aylanishi mumkin. Aynan foyda solig'i davlatga xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy faoliyatiga faol ta'sir ko'rsatish imkonini beruvchi asosiy soliqlardan biridir. Shu bois, O'zbekistonda soliq islohotlarining asosiy yo'nalishlaridan biri foyda solig'ini isloh qilishga qaratilgan. O'zbekiston Respublikasida

foйда solig'i va uning ma'murchiligi 2020-yildan boshlab bosqichma-bosqich isloh qilinib, bugungi kunda elektron axborot tizimlariga asoslangan zamonaviy boshqaruv modeliga ega bo'lib bormoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Bir qator xorijiy hamda mahalliy iqtisodchi olimlar foйда solig'i ma'murchiligi boyicha ilmiy izlanishlar olib borib, o'zlarining iqtisodiy qarashlari va fikrlarini quyidagicha bildirishganlar.

Michael Devereux va John Vella o'zlarining "Korporativ foйдani soliqqa tortishdagi adolat masalalari" maqolalarida qayd etadilarki, korporativ foйда solig'i adolatligi, (fairness) muammosi esa kompaniya ichidagi shaxslarga yuk bo'ladi, kim foйда oladi degan masalaga borib taqaladi, [1] - deb hisoblashadi.

Valerio Filoso o'zining "Korporativ daromad solig'i: tadbirkorlik nuqtai nazaridan" nomli maqolasida korporativ daromad solig'i tadbirkorlik faoliyatiga qanday ta'sir ko'rsatishini tahlil qilgan bo'lib, korporativ daromad solig'i bozordagi o'zgarishlar va muvaffaqiyatli spekulyatsiyalarga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiluvchi soliq sifatida ifodalagan. Tadbirkorlik va soliq bilan bog'liq simmetriya yo'qligi va ichki resurslardan foydalanishdagi muammolar tadbirkorlik faoliyatini susaytirishi mumkinligi ko'rsatilgan [2].

Babajanov Davronbek o'zining "Yuridik shaxslarning foydasiga soliq solish ma'muriyatchiligini tahlili" nomli maqolasida O'zbekistonda yuridik shaxslarning foйда solig'i ma'murchiligi muammolari haqida to'xtalib o'tgan. Soliq qonunchiligi murakkabligi, soliq to'lovchilarning yetarli malakaga ega emasligi, zamonaviy texnologiyalardan yetarli foydalanilmasligi kabi muammolar ko'rsatilgan [3].

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot ishi olib borish jarayonida mantiqiy fikrlash, prognozlash, sintez, tizimli yondashuv, tarkibiy va qiyosiy tahlil, iqtisodiy

taqqoslash, ilmiy umumlashtirish, statistik hisoblash usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Xo'jalik yurituvchilarning foydasi va uning soliqqa tortilishi bo'yicha nazariy asoslar foydaning iqtisodiy mohiyatini tushunishga, shuningdek, iqtisodchilar fikrlarini foydaning soliqqa tortilishi masalalarida o'rganishga imkon beradi. XX asrda shakllangan foйда soliqlarini nazorat qilish nazariyalari bugungi kunda rivojlangan barcha mamlakatlarda foйда va daromadlarni soliqqa tortish tizimining asosini tashkil qiladi. Foйда iqtisodiyotni rivojlantiruvchi kuch sifatida qaraladi va budjetga soliq tushumlarining manbai hisoblanadi.

Korxonalarining foydasini nazariy jihatdan soliqqa tortish masalalarida soliq obyektini tanlovi muhim ahamiyatga ega. Foйда to'g'risida turli nazariyalarini o'rganish muallifga shuni anglash imkonini berdi-ki, foйда eng maqsadga muvofiq soliqqa tortiladigan obyekt hisoblanadi, chunki, foйда tadbirkorlik faoliyatining yakuniy natijasi va asosiy maqsadi bo'lib, soliqqa tortish mexanizmini samarali qo'llash imkonini beradi.

Soliqqa tortish nuqtai-nazaridan bu, soliq mexanizmi zarur mahsulotga ta'sir qilmaydi, ya'ni boshqa shartlar teng bo'lganda oddiy ishlab chiqarish jarayoni saqlanadi.

Foydaning bir xilligi uning o'sishini (yoki kamayishini) tezkor kuzatish, turli omillarning ushbu jarayonga ta'sirini aniqlash imkonini beradi. Shu tariqa, foйда soliqqa tortiladigan obyekt sifatida mamlakatda yuz berayotgan o'zgarishlarga tezkor javob berish (foйдani oshirishni rag'batlantirish yoki sekinlashtirish) imkoniyatini beradi.

Foydani soliqqa tortish obyektini sifatida tanlash ayrim korxonalarda ortiqcha foйда paydo bo'lishini qayd etishga, uning sabablari aniqlashga va zarur hollarda soliq mexanizmini tartibga solish uchun ishlatishga imkon beradi.

Foyda solig'i - bu xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy natijalari (foydasi)dan hisoblanadigan soliq turidir. U davlatga nafaqat daromad manbai, balki iqtisodiy siyosatni amalga oshirish vositasi sifatida ham xizmat qiladi.

Asosiy funksiyalari:

- fiskal (budjetni to'ldirish);
- tartibga soluvchi (investitsiya va ishlab chiqarishga ta'sir ko'rsatish);
- ijtimoiy (daromadlar tengsizligini yumshatish).

O'zbekistonda foyda solig'i 2020-yildan boshlab 15 foiz stavkada belgilangan. Ayrim tarmoqlar (banklar, mobil kompaniyalar) uchun esa oshirilgan soliq stavkasi joriy etilgan.

Soliq ma'murchiligi deganda, soliq majburiyatlarining to'g'ri bajarilishini ta'minlash maqsadida soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasidagi boshqaruv jarayoni tushuniladi.

Foyda solig'i ma'murchiligi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Soliq hisobini yuritish va foyda bazasini aniqlash;

2. Hisobotlarni elektron shaklda taqdim etish;

3. Soliq organlari tomonidan monitoring va nazorat;

4. Soliq qarzlarini undirish va bahslarni hal etish.

O'zbekiston Respublikasi soliq qo'mitasi tomonidan foyda solig'ining ma'murchiligi my.soliq.uz axborot tizimi orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, 2021-yildan boshlab "Soliq ma'murchiligini raqamlashtirish strategiyasi" asosida quyidagi chora-tadbirlar joriy etilgan:

- Elektron hisob-fakturalar tizimi;
- Soliq xavfi tahlili tizimi (Risk Analysis System);
- Soliq auditining riskga asoslangan shakli;
- Sun'iy intellekt yordamida foyda solig'i deklaratsiyalarini tahlil qilish.

Bu islohotlar natijasida foyda solig'i tushumlari hajmi 2024-yilda 2020-yilga nisbatan 1,7 baravar oshgan.

1-jadval

Foyda solig'i ma'murchiligi bo'yicha xalqaro tajriba*

Mamlakat nomi	Foyda solig'i stavkasi	Ma'murchilik xususiyati
AQSh	21 %	IRS orqali qat'iy hisobot nazorati
Germaniya	15 % + 5,5 % soliqqa qo'shimcha to'lov	Mahalliy darajada audit tizimi
Rossiya Federatsiyasi	20 %	Federal soliq xizmati orqali avtomatlashtirilgan nazorat
Qozog'iston	20 %	Elektron monitoring tizimi

*Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

1-jadval ma'umotlaridan ko'rinib turibdiki, tahlil qilinayotgan 4 davlatda ham avtomatlashtirilgan nazorat tizimi joriy etilgan. Bu tajribalar O'zbekiston uchun ham foydali bo'lib, soliq to'lovchilar bilan ishonchli hamkorlikni rivojlantirish yo'lida qo'llanilmoqda.

Foyda solig'i ma'murchiligida bir qator amaliy muammolar mavjud:

❖ Soliq bazasini to'g'ri aniqlashda buxgalteriya hisobi bilan soliq hisobi o'rtasida tafovutlar mavjud;

❖ Ayrim kichik korxonalar foyda solig'ini to'lashdan qochish maqsadida noto'g'ri xarajatlarni ko'rsatadi;

❖ Soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasida huquqiy savodxonlik yetarli emas.

Xulosa va takliflar.

Foyda solig'i ma'murchiligi davlat moliyaviy siyosatining asosiy tarkibiy qismi bo'lib, uni samarali tashkil etish mamlakat iqtisodiyotida barqarorlikni ta'minlaydi. O'zbekiston so'nggi yillarda raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish orqali soliq ma'murchiligini yangi bosqichga olib chiqdi. Kelgusida soliq to'lovchilar bilan ochiq muloqot, xalqaro standartlarga mos hisobot yuritish va sun'iy intellekt texnologiyalarini keng qo'llash foyda solig'i ma'murchiligining samaradorligini sezilarli oshiradi.

Albatta soliq tizimida amalga oshirilayotgan islohotlardan kelib chiqib, foyda

solig'i ma'muriyatchiligini takomillashtirish yuzasidan bir qator takliflar tizimini ishlab chiqdik. Jumladan:

1. Soliq hisobi standartlarini xalqaro IFRS talablariga yaqinlashtirish;
2. Soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish markazlarida masofaviy maslahat tizimini kengaytirish;
3. Riskga asoslangan audit tizimini yanada takomillashtirish;
4. Soliq ma'murchiligi jarayonlarini to'liq raqamlashtirish;
5. Soliq organlari xodimlarining dasturiy mahsullar bo'yicha kasbiy malakasini oshirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Michael Devereux va John Vella. "Issues of Fairness in Taxing Corporate Profit". *Journal LSE Public Policy Review*. Year: 2022, Volume: 2 Issue:4, Page/Article: 10, <https://ppr.lse.ac.uk/articles/10.31389/lseppr.69>
2. Valerio Filoso. "The Corporate Income Tax: An Entrepreneurial Perspective". Published in: *The Quarterly Journal of Austrian Economics*, Vol. 13, No.1: pp. 99-123, <https://mpira.ub.uni-muenchen.de/42967/>
3. Babajanov Davronbek. "Analysis of the administration of taxation of profits of legal entities". *Journal Eurasian Research Bulletin*. Volume 27, December 2023, <https://geniusjournals.org/index.php/erb/article/view/5364>
4. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. <https://lex.uz/docs/-4674902>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son Farmoni, <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-iyuldagi "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish strategiyasi"ning PQ-4389-son Qarori, <https://lex.uz/docs/-4415356>
7. O'zbekiston Respublikasi soliq qo'mitasi rasmiy sayti — <https://soliq.uz>